

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.Mamadaliyeva</b>	
Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazorati .....	208
<b>F.M.Mamadova</b>	
Pedagogik madaniyat va kompetensiyani takomillashtirishning uslubiy jihatlari .....	211
<b>Z.A.Boboyeva</b>	
Uzluksiz ma'naviy tarbiya ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishning muhim omili.....	214
<b>G.H.Axmedova</b>	
Jorj Eliotning "Daniel deronda" romanining o'ziga xos jihatlari tahlili.....	219
<b>F.A.Temirova</b>	
Hsg misolida idiomatik lug'atni tuzish yondashuvlarining uslubiy tahlili: taqqoslash, xususiyatlari va tavsiyalari .....	222
<b>G.Sh.Zununova</b>	
Zamonaviy o'zbek turar joyining dastlabki manbalari haqidagi masalalar bo'yicha .....	226
<b>F.K.Yusupjanova</b>	
Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar .....	231
<b>U.Abdullayeva</b>	
Bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishga tayyorlash .....	235
<b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi .....	241
<b>D.A.Xolmatov</b>	
Odil Yoqubov hikoyalarining janr xususiyatlari .....	247
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari .....	252
<b>I.I.Soliyev</b>	
OTMLar boshqaruvini isloh qilish va unga yangicha yondashuvlarni tatbiq qilish zarurati.....	257
<b>D.T.Tursunova</b>	
Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning gender xususiyatlari .....	264
<b>D.D.Boymirzayeva</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini isloh qilish va unga yangicha printsiplarini joriy qilish zarurati .....	270
<b>M.Norinov</b>	
Bo'lajak texnik mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini multimediya vositalari asosida rivojlantirish omillari .....	275
<b>F.A.Askarov</b>	
Jismoniy yuklama to'g'risida umumiy tushuncha va jismoniy mashqlar yuklamasining pedagogik xususiyatlari .....	279
<b>S.Y.Xushvaqov, M.M.Jurayev, N.M.Qutlimuratov</b>	
Mahalliy xomashyolar asosida olingan yangi ionitga yod ionlarining sorbsiya kinetikasi.....	282
<b>U.A.Buriyeva</b>	
Ingliz tilshunosligida to'liqsiz gaplarning shakllanishi .....	287
<b>N.N.Teshayev</b>	
Taraqqiyotning yangi bosqichida fuqarolik jamiyati ma'naviy-mafkuraviy omillarini mustahkamlash amaliyoti .....	291
<b>M.Saminjonov</b>	
Turli sohalardagi qasamyodlarning rasmiy tuzilishi.....	295

**ODIL YOQUBOV HIKOYALARINING JANR XUSUSIYATLARI**  
**ЖАНРОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАССКАЗОВ ОДИЛА ЯКУБОВА**  
**GENRE CHARACTERISTICS OF STORIES BY ODILE YAKUBOV**

**<sup>1</sup>Xolmatov Doston Abdujabbor o'g'li**  
<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov hikoyalarning janr xususiyatlari yozuvchi badiiy mahorati qirralari yoritilgan. Ijodkorning XX-XXI asr o'zbek hikoyachiligiga qo'shgan hissasi "Matluba" va "Tilla uzuk" hikoyalari tahlili orqali ko'rsatib beriladi. Ushbu hikoyalarda ijodkor uslubiga xos jihatlar tahlil etiladi.*

**Аннотация**

*В статье освещаются особенности художественного мастерства написания жанровых особенностей рассказов народного писателя Узбекистана Одила Якубова. Вклад автора в узбекское сказительство XX-XXI веков показан посредством анализа повестей «Матлуба» и «Тилла узук». В этих рассказах анализируются аспекты, характерные для стиля художника.*

**Abstract**

*The article highlights the features of the artistic skill of writing the genre features of the stories of the people's writer of Uzbekistan Odil Yakubov. The author's contribution to Uzbek storytelling of the 20th-21st centuries is shown through the analysis of the stories "Matluba" and "Tilla Uzuk". These stories analyze aspects characteristic of the artist's style.*

**Kalit so'zlar:** hikoya, mahorat, uslub, obraz, xarakter, davr muammolari, mehr-oqibat, voqelik, syujet rivoji.

**Ключевые слова:** рассказ, мастерство, стиль, образ, персонаж, проблемы эпохи, доброта, реальность, развитие сюжета.

**Key words:** story, skill, style, image, character, problems of the era, kindness, reality, plot development.

**KIRISH**

Epik janrning kichik turi hisoblangan hikoya inson hayotining kichik bir davridagi voqelikni o'zida aks ettirishi bilan harakterlanadi. Shu bilan birga kichik hajmli bu badiiy asar turi kishi hayotidagi ma'lum bir voqeani tasvirlaydi va unga qadar bo'lgan yoki undan keyin ro'y beradigan voqealarni batafsil bayon etmaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Hikoyanavisning ustaligi shundaki, u kishi hayotidan kichikina bir epizodni olib unda hayotning muhim tipik tomonlarini shu ixcham shaklda tipikashtirib tasvirlaydi [1,274]. Ushbu janrning yana bir xususiyati "Hikoya odatda qahramon hayotidan bitta (ba'zan bir-biriga uzviy bog'liq qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi. Tasvirlanayotgan voqealarni qisqa vaqt davomida kechishi hikoyaning hajman, syujeti sodda ishtirok etuvchi personajlar soni kam bo'lishini taqozo etadi. Har qanday voqea ham hikoyabop emas. Hikoya asosida yotgan voqeaning yaxlit tugal bo'lishi talab etiladi. Buning uchun u o'zining boshlanishi yakuniga ega bo'lishi (masalan latifadagi kabi) lozim"[2,293-294]. Yaxlit voqeani tasvirlash asosida hikoyanavis yo shu voqeaning, yo uning vositasida harakterning mohiyatini ochib beradi. Hikoyaning ikki tipi bo'lib birinchisida ocherklilik (tavsifiy-rivoyaviy) ikkinchisida novelistiklik (konfliktli-rivoyaviy) xususiyati ustundir. Adabiyotshunoslikda bularning birinchisini hikoya, ikkinchisini novella deb farqlash amaliyoti ham mavjud. Shuni ham unutmash kerakki, hikoya "Epik turga mansub kichik hajmli janr bo'lib, u o'ziga xos imkoniyat va hayotiy qamrovga ega. Hikoyada tasvirlanayotgan voqea o'z mohiyati va ahamiyati jihatidan epik turning roman, povest kabi janrlardan farqlanmasa ham, biroq tasvirning ko'lami syujet va kompozitsiyaning nisbatan soddaligi, bayonning asosan bir shaxs tomonidan olib borilish jihatidan farqlanib turadi"[3,250].

**NATIJARLAR VA MUHOKAMA**

Odil Yoqubovning "Matluba" (1966) hikoyasi retrospektiv syujet asosida qurilgan. Asar voqealari tugun bilan boshlanadi: "Matluba singlisining xatini ertalab olgan bo'lsa ham, o'qib chiqib stolning tortmasiga tashlab qo'ya qoldi. Chunki uning iltimosini ado etolmasligini tushungan edi. Keyin kun bo'yi sanatoriya vrachining zimmasidagi ming xil mayda-chuyda ishlar bilan bo'lib

singlisining xati yodidan ham ko'tarildi. Kechqurun nimadir qidirib stolning tortmasini ochdi-yu ko'zi xatga tushib qo'ngli bir xil bo'lib ketdi"[4,270].

Ma'lum bo'lishicha, ushbu xat Matlubaning singlisi Masturadan kelgan bo'lib, u institutga o'qishga topshirib ikki ball yetmay qolgani bois opasini qabul komissiyasi mas'ul kotibi Samig'jon Matqobilov oldiga kelib, uchrashib ketishini so'ragandi. O'sha davrning qoidasiga ko'ra qishloqdan kelgan abituriyentlarga imtiyozlar bo'lib, o'qishga qabul qilishlari ham mumkin ekan. Matlubaning xayoliga singlisining xatini o'qish jarayonida ozg'in ma'sum chehrasi va mo'tirab turgan ko'zlari keladi. Bir mahallar Matluba ishlagan shahar poliklinikasi bosh vrachi Asqar Aminovning soy bo'yiga bir guruh yovvoyi dam oluvchilar bilan kelishi va uning "Iye, sho'ttamisiz hali? To'y bo'ldimi? Chaqirmadingiz-a? deb hazillashishi, uni qalbini tirnagan va o'z o'tmishini yodga solgandi.

Matluba endigina sakkizinchi sinfni bitirgan paytida Samig'jon dadasi bilan soy bo'yiga dam olishga kelgan edi. Ularning tanishuvi shundan boshlanib so'ng medtexnikumga o'qishga borganda yana uchrashgan edilar. Matlubada ham Samig'jonda ham bir-birlariga muhabbat paydo bo'ladi. Matluba qishloqning eng tortinchoq qizi bo'lsa, Samig'jon shaharning zamonaviy yigiti edi. Samig'jon fizkultura institutida o'qiydi, mohir volleybolist.

Matluba davlat imtihonini beshga topshirib chiqqanida, uni Asqar Aminovich Toshkentdagi o'z poliklinikasiga ishga olib qoladi. Samig'jon keyin ikki yilga harbiy xizmatga ketadi. Matluba barcha sovchilarni rad etadi. Hatto Asqar Aminovich o'z jiyani Nusratjon bilan tanishtiradi. Nusratjon qiyofasi asarda "ostonada haqiqatda zamonaviy kiyingan, qop-qora sochlari silliq, uzunchoq, bug'doyrang yuzi qip-qizil bo'lib ketgan bir yigit o'ng'aysizlikdan ko'zlari suzilib, ishshayib turardi. Yigit novchagina, lekin yag'rindor bo'lgani uchunmi, baqaloqroq ko'rinar edi" [4,278] tarzida tasvirlanadi.

Asarda Matluba portreti quyidagicha aks etgan: "Matluba boshida nafis qizil durra, egnida nozik qomatiga yarashib tushgan va qoracha chehrasini allaqanday ochib yuborgan oppoq xalat, ikki o'rim mayin sochi belida, tor yo'lakda dik-dik yurib o'tganida suqlanib qaramagan odam bo'lmas, xatto davolanishga kelgan keksa bemorlar ham Matluba ukol kilyotganida: "qo'lingiz yengil ekan, dard ko'rmang, kizim!", deb duo qilishar, yoshlar esa tirjayib yo'lini poylashar edi"[4,276]. Matluba Asqar Aminovichning nasihatlariga quloq solmaydi. Uning jyaniga turmushga chiqishni xohlamaydi. Hatto Asqar Aminovich bilan tortishib qoladi va Surxondaryoga ketmoqchi bo'ladi. Shu orada Samig'jon harbiy xizmatni tugallab, telegramma jo'natadi. Telegramma mazmunida ham Samig'jonning xudbin qiyofasi aks etayotgandek bo'ladi: "Yo'lga chiqaman. Reys 421. Kutib ol. Matqobulov"[4,283]. Yozuvchi mahorati shundaki, telegramma detali vositasida hikoyaning tor matn maydonida katta ma'noni ifodalashga erishadi. Aeroportda Samig'jonni kutish chog'ida bo'lib o'tgan hodisalar, Samig'jonning "Haliyam o'shanaqamisan? "Qishloqi!" deya unga so'z qotishi Matlubaning dilini vayron qiladi. Ma'lum bo'lishicha, Samig'jon shon-shuhratdan mast bo'lib, qizlarning xushomadlaridan boshi aylanib qolgan. Armiyada bir kun ham xizmat qilmagan, u ikki yil okrug ofitserlar uyining fizkultura komandasida volleybol o'ynab o'tkazgan. Shaharma-shahar kezib chet ellarga chiqib, bir dasta diplom bilan sport masteri bo'lib qaytibdi.

Matlubani Samig'jonning opasi unga turmushga chiqishdan qaytarmokchi bo'ladi. Hatto "Matluba ko'nglining bir chetida uning xaq ekanligiga iqrar edi, lekin iqrar bo'lgani uchun ham battar yondi"[4,289]. Lekin u niyatidan qaytmaydi. Uchrashuvga kelgan Samig'jon esa oila qurish, ZAGSdan o'tishning javobgarligini olishni xohlamaydi. Shunday bo'lsa-da, u Samig'jonning qistovi bilan beixtiyor ziyofatga borishga rozi bo'ladi. Zamonaviy bo'lmagan Matlubaning Samig'jon ulfatlarini ko'rgandagi holati shunday tasvirlanadi: " – Yigit Matlubani qo'ltig'idan olmoqchi bo'lib qo'lini cho'zdi, Matluba huddi yosh boladek hurkib Samig'jonning orqasiga yashirindi. Uni xomsemiz yigitning mastona harakatigina emas, ichkaridan eshitilayotgan chinqiriq muzika bilan qizlarning qahqahasi, ayniqsa, yo'lakni to'ldirgan pag'a-pag'a tamaki tutuni-yu, allaqanday ko'lansa hid seskantirib yuborgan edi" [4,293]. Matlubani o'zini "zamonaviy" deya hisoblovchi ushbu yoshlar to'dasining g'ayriaxloqiy odatlari g'azablantiradi. "Xomsemiz og'ayni" Matlubani qo'ltiqlamoqchi bo'lsa, Samig'jon uning xotinini qo'lini ushlab ichkariga kirmoqchi bo'lgani unga erish tuyuladi va davraga qo'shilmay tashqariga qaytadi.

Yozuvchi diolog vositasida ichki dunyosi bir-biridan farq etuvchi yigit va qiz qiyofasini mahorat bilan aks ettiradi. Quyidagi diolog hikoya kulminatsiyasini ham tashkil etadi :

"Samig'jon aftini bujmaytirib:

– To‘y, uy-ro‘zg‘or, qozon-tovoq, bola-chaqa ! Voy-dod! – deb kuldi.

Matluba boshini egdi, qo‘rqib bo‘lsa o‘jarlik bilan: – voydod bo‘lsa... men ham bunday yurolmayman, – dedi.

– Bo‘lmasa kutar ekansan-da! – dedi Samig‘jon, – Besh yilga chidaysanmi?

– Mayli, kutaman!

– Qarib qolasan-ku! – Samig‘jon bu gapni aytishga aytib qo‘yib darrov tilini tishladi. Chunki Matluba to‘saddan rangi o‘chib lablari pipirab ketdi.

– Qarib qolishimdan qo‘rqsangiz... atrofingizda parvona bo‘lib yurganlar bilan bo‘laving! Institutni bitirib mashhur bo‘lganingizda uylanasi!”[4,295].

So‘ng u Samig‘jonni ToshMI ning ikkinchi kursida o‘qiyotganda “Volga” mashinasini bir gala qizlar bilan to‘ldirib ketayotganda ko‘radi. Oxirgi safar esa beshinchi kurs imtihonini topshirib praktikaga ketayotganida mast holatda oldiga kelganda uchratadi. Uning “oftobdan qoraygan shiddatli yuzida kinoyali tabassum” bor edi. Yozuvchi hikoya uchun mos bo‘lgan “yuzdagi kinoyali tabassum” holat detali vositasida o‘z qarashlaridan hali qaytmagan Samig‘jon harakterini yoritishga erishadi. Samig‘jonning holati hikoyada quyidagicha yoritiladi: “Matluba unga yaqinroq bordi-yu, seskanib ketdi: Samig‘jon oyoqda zo‘rg‘a turardi!.. Galstugi bir tomonga qiyshayib qolgan, ko‘zlari qizarib ketgan, lab-lunji osilgan...

Matluba vujudi zir titrab orqaga tisarildi.

– To‘xta nega qochyapsan, Matlub! – dedi Samig‘jon. – Mana, xohlasang ZAGSdan o‘tamiz. Agar sen uchun mening yuragimdan ZAGS qog‘ozi ortiq bo‘lsa marhamat unga ham tayyormiz!

U Matlubaga yaqinlashoqchi bo‘lib bir ikki qadam tashlagandi, qoqilib ketib, akatsiyani ushlab qoldi”[4,297].

Ana shu tariqa ikki bir-birini sevib qolgan, lekin dunyoqarashi bir-biridan tubdan farq qiluvchi yigit-qiz o‘rtasidagi konflikt ularning qarashlari, kechinmalari o‘rtasida kechadi.

Singlisining qistovi bilan oxir-oqibat Samig‘jon oldiga keladi. Hikoyada Matluba o‘sha tanish holatga duch kelgani shunday tasvirlanadi: “Matluba rangi o‘chib singlisi ko‘rsatgan tomonga qaradi. Samig‘jon qo‘lida shlyapa, terakka suyanib bir guruh qizlar bilan chaqchaqlashib turardi. Uzoqdan uning chehrasi aniq ko‘rinmas, faqat oppoq tishlari yiltirar, lekin Matlubaning nazarida u hech o‘zgarmagan, aksincha, yana ham yasharib ketgandek tuyuldi”[4,299].

Matluba singlisidan kechirim so‘rar ekan, Samig‘jon bilan uchrashmaslikka qaror qiladi. Samig‘jon Masturadan opasining kelib, so‘ng ketib qolganini eshitgach esa, hayrati yana oshadi:

“–Tavba! – Samig‘jon bo‘g‘ilib ketayotgandek bo‘lib tomog‘ini siladi, so‘ng:

– Eh, Matlub! Matlub! – deb bosh chayqadi-da, miyig‘ida kulimsiradi. – Opang... Haliyam o‘sha-o‘sha ekan-da, a?”[4,299].

Yozuvchi Samig‘jon fojeasi Matluba ko‘nglini, kechinmalarini anglay olmasligi, uning pokiza sevgisi oldiga qo‘yayotgan talablarini tushunmasligi, to‘g‘rirog‘i, muhabbatini qadrlay bilmasligidadir. Undagi shon-shuhratga o‘chlik, manmansirashlik, yengil hayotga berilish Matlubani undan uzoqlashtiradi.

Hikoyada muallif qahramonlari taqdiri qanday tugaganligi haqida hech narsa deyilmaydi. Hukm chiqarishni kitobxonga qoldiradi: “...Matluba esa, bu payt institutdan uzoqda shahar parkining eng hilvat joyida bir o‘zi o‘tirardi. U o‘zi bilan o‘zi olishar edi: “Hozir qilgan ishi to‘g‘ri bo‘ldimi, yo‘qmi? Masturaga nisbatan, bittayu-bitta singlisiga nisbatan yaxshi qilmadi, albatta. Lekin hozir Samig‘jon bilan uchrashganda nima derdi? O‘shanda gapingizga kirmay ahmoqlik qilgan ekanman, mana endi pushaymon bo‘lib keldim, deydimi?”

– Yo‘q, uchrashmaganim yaxshi bo‘ldi? – derdi Matluba. Lekin ko‘zlarini park darvozasidan uzolmas, ketganini singlisiga aytmaganini unutib, Samig‘jonni izlab kelishini orziqib kutar, olisda unga o‘xshagan yigit ko‘rinsa yuragi o‘ynab ketardi. Kelayotgan yigit Samig‘jon emasligiga ishongach, ko‘ziga milt-milt yosh olardi”[4,300].

Hikoya sarlavhasi semiotik kalit vazifasini o‘taydi. Asar Matlubaning beg‘ubor, pokiza muhabbati va bu yo‘ldagi iztiroblari tasviriga bag‘ishlangani bois bosh qahramon ismi bilan nomlangan. Unda ko‘ngilning nozikligi, beg‘ubor tuyg‘u – muhabbatni e‘zozlashga undash g‘oyasi yetakchi o‘rinni egallaydi. Yozuvchi hikoya janriga xos imkoniyatlardan foydalanib davrning muhim, dolzarb masalasini yoritishga erishadi.

“Tilla uzuk”(1962) hikoyasi Vohidning poyezdda qishlog‘iga kelishi tasviri bilan boshlanadi. So‘ng Vohid xotiralari asosida qo‘shnisining qizi Roziya bilan muhabbat mojarolari jonlanadi. Hikoyada Roziyaning o‘zgarib borayotgan portreti Vohidning turli davrlardagi nigohi orqali aks ettiriladi. Bu esa o‘z navbatida Vohid bilan Roziya o‘rtasidagi do‘stlikning muhabbatga aylanish jarayonini ham ifodalashga xizmat qiladi: “Vohid o‘rta maktabni bitirib armiyaga xizmatga ketganida Roziya beshinchi yo oltinchi sinfda o‘qib yuradigan, qorachadan kelgan ozg‘ingina bir qiz edi. Shundan keyin u Roziyani armiya xizmatidan qaytib kelgan yili ko‘rdi. Uning bo‘yi xiyla cho‘zilib qolgan, biroq juda nozik, hatto nimjon ko‘rinar, faqat doim kulib turadigan qop-qora ko‘zlari esida qolgandi... To‘rtinchi kursni tugatib, dam olishga kelganida esa to‘satdan Roziyani ko‘rib lol bo‘lib qolgandi. Ikki yil ichida bo‘yiga yetib, to‘lishib shunday ochilib ketgan ediki, go‘yo to‘satddan tuproq orasidan topilgan tilla uzukdek, Vohidning ko‘zini qamashtirib yuborgandi!”[4,307]. Yigit ayni olma pishig‘i paytida bog‘ ichida to‘satdan qizning uchratish manzarasidagi qiyofasi yanada yorqin aks ettiriladi: “...Vohidning oldida oq ko‘ylakli, nozikkina, uzun bo‘yli bir qiz paydo bo‘ldi. Qizning yuzi, bo‘yni, yenglari bilaklarigacha shimarilgan yalong‘och qo‘llari quyoshda kuyib, jigarrang tusga kirgandi. U katta bir olmani qarsillatib, tishlab, kulimsirab turar, sal qisilgan qora ko‘zlarida: “Tanidingizmi, yo‘qmi?” degan bir ifoda jilva qilardi”[4,307].

Vohidning singlisi Zarifa ularning o‘zaro muhabbatini yanada mustahkam bo‘lishda ma‘lum ma‘noda o‘rin tutadi. Roziya shahardagi feldsherlik bilim yurtini tugatgan va qishloq kasalxonasida hamshira bo‘lib ishlaydi. Hatto u bilim yurtida o‘qib yurgan paytda Jamila rolini o‘ynagan. Ularning munosabatlaridan Roziyaning onasi Gulsun ham, Vohidning onasi Rizvon xola ham xabar topadilar. Ularni unashirib qo‘yadilar. Hikoyada yozuvchi ushbu janr imkoniyatlardan foydalanib holat va qiyofalarni tizgilar orqali beradi. Bu tizgilar xarakterlarni ochishga xizmat qiladi.

Oradan uch-to‘rt oy o‘tmasdan Vohidning cheksiz-chegarasiz baxti, abadiy ko‘ringan muhabbati xazon bo‘ladi. U onasi yuborgan telegrammani olgan kuning ertasiqayoq qishloqqa yo‘lga chiqadi. Yozuvchi qahramonlar holatlariga mos peyzaj tasvirini hikoyaga shunday olib kiradi: “Sovuq shamol qumga o‘xshash mayda qorni kishining yuziga ming tikan qilib sanchgan bo‘ronli, yoqimsiz bir oqshom edi”[4,314]. Ana shu yoqimsiz oqshomdan Vohid Roziya to‘g‘risida yoqimsiz xabarni, ya‘ni Toshtemir (laqabi Toshqora) degan qishloqdoshi bilan tomosha qo‘yish bahonasida yurishni odat qilganni yetkazadilar. Ambulatoriyaning bosh vrachi bo‘lgan Toshqora bilan hatto spektakl bahonasi bilan yuzlarcha odamlarning ko‘z o‘ngida quchoqlashib o‘pishganliklarini, bundan ham yomoni o‘yindan keyin sahar payti uyga mast holatda qaytib kelganini aytadilar. Bu masalada akasining katta o‘g‘li va kelinoyisi Roziyaga tanbeh berganlarida o‘zlarini jerkib tashlaganliklarini Vohidga yetkazadilar. Vohid qishloqqa kelgan kechasi navbatchilik qilayotgan Roziyani ambulatoriyadan chaqirib chiqib sababini so‘raganda u jahl bilan titrab-qaqshab: “Ha rost, Toshtemir aka bilan yurganim ham, o‘pishganlarim ham–hammasi rost! Chunki ... chunki u sizdan ming marta yaxshi”, deb uning o‘ziga chang solgan va bu ko‘ngil qolishiga olib kelgandi.

Yozuvchi mahorati shundaki, hikoyaning imkoniyatlaridan samarali foydalanib qahramon–roviy nutqi vositasida o‘zining tuzatib bo‘lmas xatosi va so‘nggi iztiroblarini jonli talqin etilishiga erishadi. Agar “Matluba” hikoyasida bosh qahramon – qiz nigohi, kechinmalari tasviri ustuvorlik qilsa, “Tilla uzuk”da bosh qahramon – yigit tuyg‘ulari talqini yetakchilik qiladi. Ikki hikoyada ham qahramonlar hayoti bilan bog‘liq bir voqea, umrni qisqa bir davri ifodasini topib o‘quvchini ogohlikka, muhabbatni avaylab-asrashga chaqiriq asosiy o‘rin tutadi. Yozuvchi ikki chigal taqdir orqali inson ko‘nglini nozikligini, muhabbat deb atalgan muqaddas tuyg‘uni asray bilmaslik oxir-oqibat armonga olib kelishini ishonarli yoritib beradi. “Tilla uzuk” hikoyasida qahramonlarning barchasida qaysidir ma‘noda aybu xatolar bor. Vohidning xatosi onasining, akasi va kelinoyisi hamda jiyanining Roziya to‘g‘risidagi gap-so‘zlarga darhol ishongani va Roziyaning ko‘nglini og‘ritib darhol savolga tutishi bo‘lsa, Roziyaning xatosi qishloq odamlarining dunyoqarashini hisobga olmasligi hamda g‘ururiga erk berib bor haqiqatni Vohidga xotirjamlik bilan tushuntirmasligidadir. Vohidning onasi, akasi, kelinoyisi va jiyanining xatosi esa yaxshilik qilish niyatida o‘rinsiz ravishda ko‘r-ko‘rona ular munosabatiga aralashganliklaridadir. Vohid shu tufayli ham gunohsiz “gunohkor” Roziyadan yuz o‘girib Mashhuraga uylanadi, endi ota bo‘lish arafasida. Roziya ham boshqa bir qishloqdagi shofyor yigitga turmushga chiqqan.

Yozuvchi “tanasi kovak olma daraxti” detalidan unumli foydalanadi. Bu go‘yo Vohidni Roziya haqidagi musaffo, beg‘ubor o‘ylarining kemtikligiga ishora vazifasini o‘taydi. Hikoyadagi

Vohid kechinmalari tarzda berilgan: “Mana, tanasi kovak tanish olma!.. Roziya uning tepasida turib, Vohidning boshiga olma yog’dirgan, so’ngra sakrab tushib, butun go’zalligini namoyish qilgan, go’yo to’satdan topilgan tilla uzukdek ko’zlarini qamashtirib yuborgan joy xuddi mana shu edi! Afsuski, bu uzuk tilla emas, mis chiqdi!”[4,322].

Hikoyada tilla uzuk ikki o’rinda qo’llanilgan. Yuqoridagi misolda u sevishgan shaxs – Roziyaning ramzi bo’lsa, boshqa bir o’rinda Vohid tomonidan qizga tortiq etilgan onasining Parpi zargarga atab buyurtirib toza tilladan yasatib bergan buyumi, muhabbatining ifodasidir.

Yozuvchi hikoya personajlari o’rtasidagi konfliktni yanada taranglashtirilishi, keskinlashtirilishi uchun endi Vohidning singlisi Salima bilan Roziyaning ukasi Sobir o’rtasidagi muhabbat voqeligini sujetga olib kiradi. Bu esa soxta g’ururga berilgan Vohidning akasi, kelinoyisi va onasining g’azabini keltiradi. Ularning oila qurishlariga tish-tirnoqlari bilan qarshilik qila boshlaydilar. Ular o’zlarini Roziya tomonidan haqoratlangan, izzat-g’ururlari oyoqosti qilingan hisoblaydilar. Sobir va Salima muhabbati mojarosida Vohid Roziyani Toshqoraga emas, boshqa bir shofyor yigitga turmushga chiqqanini eshitib hayratga tushadi. Roziya Sobir va Salimaning muhabbati xazon bo’lmasligi uchun Vohid bilan uchrashadi. Bu uchrashuvda Roziyaning Vohidni chindan sevgani ayon bo’ladi. Vohid ham uning o’ziga xiyonat qilmaganligini anglaydi. Roziya Vohiddan sevishganlarni so’raydi. Rizvon xola Vohidni ham, Salimani ham baxtli bo’lishini xohlaydi. Lekin o’zi bilmagan holda Vohid va Roziyani ajratib yuborgani yetmaganday, Sobir va Salimaning muhabbatlariga, oila qurishlariga qarshilik qila boshlaydi. Vohid barcha mojarolarga barham berib, tunda yana qaytmoqchi bo’ladi. Yozuvchi ushbu holatdagi ona va o’g’il munosabati orqali o’zbekona mehrni tasvirlaydi:

“– Kelinimdan o’rgilay. Nevaramga mayda-chuyda tikib qo’yuvdim. Olib ketsang bo’lard! – dedi Rizvon xola, shunday dedi-yu, u ham yig’lab yubordi.

Ajabo: shunday sodda, mehribon onani ayblab bo’larmidi? Uning samimiyligidan shubhalanish, unga bir narsa deyish mumkinmidi?

Yo’q, samimiyligiga shubha qilib bo’lmas edi. Lekin butun dahshat, butun fojea shunda ediki, u o’g’liga yaxshilik qilaman deb, eng katta baxtidan judo qilib qo’rganini o’zi ham bilmas edi”.[4,335] So’ng Vohidni ularga xayrixohligini anglagan Sobir va Zarifa ham undan kechirim so’raydilar.

O’z baxtidan mangu judo bo’lganini anglagan Vohid holatini o’sha paytda peyzaj tasviri orqali yozuvchi yoritishga erishadi. “...Kecha oysiz, hammayoq zim-ziyo, hatto atrofdagi oppoq gullagan olmalar ham negadir qop-qora bo’lib ko’rinardi”[4,335].

### XULOSA

Ushbu o’rinda professor O.Sharofiddinov yozganidek, “Badiiy adabiyot voqelikni obrazli in’ikosi. San’atning hamma turlari kabi adabiyot ham voqelikni inson orqali, uning faoliyati, orzu-intilishlari, kechinmalari orqali aks ettiradi. Badiiy adabiyot bizga hayot to’g’risida bilim beradi, hayot hodisalari va inson to’g’risidagi tasavvurlarimizni boyitadi, shu orqali olamni bilib olishimizga muhim vosita bo’lib xizmat qiladi. Ammo har qanday badiiy asar ham bu vazifani bajara bermaydi. San’atkor har qancha katta tarixiy voqelarni aks ettirmasin, har qancha ijodiy muammolarni ko’tarmasin, agar uning asari chinakam badiiylkdan mahrum bo’lsa, u yetarli ta’sir kuchiga ega bo’lmaydi”[5,461]. O.Yoqubov ham hikoyalari ham badiiyatini hayotiy tafsillardan, poetik unsurlardan, kompozitsion vositalardan samarali foydalanish orqali yuksaltiradi.

### ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug’ati. – Toshkent: O’qituvchi, 1970. – B.274.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug’ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B 393-394.
3. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining rusch-o’zbekcha izohli lug’ati. – Toshkent: O’qituvchi, 1979. – B 250.
4. Yoqubov O. Qaydasan Moriko. – Toshkent: “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2002. – B 270.
5. Sharafiddinov O. Tanlangan asarlar – Toshkent: “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2019. – B 461.